

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Rahmonova Diloromxon Dilmurod qizi

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20699598>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta‘lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta‘lim texnologiyalarini tarbiya faniga integratsiyalash modeli, pedagog kadrlarning raqamli savodxonlik darajasi hamda pedagogik jarayonda innovatsion metodlarning qo‘llanilishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, raqamli ta‘lim texnologiyalari, didaktik imkoniyatlar, bo‘lajak o‘qituvchi, tarbiya fani, raqamli savodxonlik, innovatsion pedagogika, interfaol o‘qitish, elektron resurslar, professional tayyorgarlik.

Аннотация. В данной научной тезисной работе всесторонне анализируются дидактические возможности цифровых образовательных технологий в развитии профессиональной компетентности будущих учителей предмета «Воспитание». В исследовании рассматриваются модель интеграции цифровых образовательных технологий в предмет «Воспитание», уровень цифровой грамотности педагогических кадров, а также применение инновационных методов в педагогическом процессе с научно-теоретической и практической точек зрения.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, цифровые образовательные технологии, дидактические возможности, будущий учитель, дисциплина «Воспитание», цифровая грамотность, инновационная педагогика, интерактивное обучение, электронные ресурсы, профессиональная подготовка.

Abstract. This thesis provides a comprehensive analysis of the didactic potential of digital educational technologies in the development of the professional competence of prospective Moral Education teachers. The study examines the model for integrating digital educational technologies into the Moral Education subject, the level of digital literacy among pedagogical personnel, and the application of innovative methods in the educational process from both theoretical and practical perspectives.

Keywords: professional competence, digital educational technologies, didactic potential, prospective teacher, Moral Education, digital literacy, innovative pedagogy, interactive teaching, electronic resources, professional training.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida axborot texnologiyalari barcha sohalar qatori ta‘lim tizimiga ham jadal kirib kelmoqda. Natijada ta‘lim mazmuni, shakli va metodlari tubdan yangilanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zaruriyati ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ta‘lim islohotlari doirasida pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy

kompetentligini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Ayniqsa, 2022-yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimida joriy etilgan “Tarbiya” fani yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida kamol toptirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli ushbu fan bo'yicha zamonaviy pedagogik va raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan malakali o'qituvchilarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni hamda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda [1]. Ushbu hujjatlar ta'lim tizimini raqamlashtirish, raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish hamda pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirishni davlat siyosati darajasiga ko'targanligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishni strategik vazifa sifatida dolzarblashtiradi.

Pedagogika fanida kasbiy kompetentlik muammosi ko'plab ilmiy tadqiqotlar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak “Tarbiya” fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish masalasi yetarli darajada chuqur yoritilmagan. Xususan, raqamli ta'lim vositalarining pedagogik jarayonga integratsiyasi, interfaol o'qitish metodlari bilan uyg'unligi hamda bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kasbiy tayyorgarligiga ta'siri ilmiy jihatdan kompleks o'rganishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Professor N.A.Muslimov o'zining doktorlik dissertatsiyasida kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqqan [2]. Olim pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasiga tayangan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash modelini yaratgan hamda kasbiy-pedagogik faoliyatni modellashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqqan. Muslimov tadqiqotlari kasbiy kompetentlik tuzilmasini tizimli yondashuv asosida o'rganish uchun mustahkam metodologik zamin yaratgan.

Professor U.Sh.Begimqulov oliy pedagogik ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shgan [3]. Uning tadqiqotlari AKTni ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvining nazariy asoslarini chuqur yoritib, raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning metodologik tamoyillarini belgilab bergan.

Akademik A.A.Abduqodirov ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish konsepsiyasini rivojlantirgan. A.Pardayev esa “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar” asarida tarbiyaviy jarayonga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish masalalarini chuqur tahlil qilib, tarbiya va texnologiya integratsiyasining amaliy mexanizmlarini yoritgan [4].

Ularning ilmiy qarashlari tarbiya fani metodikasi bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, ushbu integratsiya nafaqat metodik yangilanishni, balki o'qituvchining raqamli, refleksiv va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Professor J.A.Hamidov o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, uning metodologiyasida o'quv axborotini ko'rgazmali-obrazli va izchil mantiqiy shaklda taqdim etishni texnologiyalashtirish muhim o'rin egallaydi [5].

O.X.Turaqulov esa ta'lim jarayonida interfaol metodlar va raqamli vositalar o'rtasidagi didaktik o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab bergan [6].

Samarqand viloyati Xalq ta'limi tizimida malaka oshirish markazida olib borilgan tadqiqotlarda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni amalga oshirish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish hamda "Tarbiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish holati empirik jihatdan o'rganilgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli ta'lim texnologiyalari multimedia vositalari, elektron darsliklar, masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Canvas), bulutli xizmatlar (Google Workspace, Microsoft 365), shuningdek, sun'iy intellekt va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarini o'z ichiga oluvchi kompleks pedagogik tizim sifatida talqin qilinadi. Taniqli tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

"Tarbiya" fani o'z mohiyatiga ko'ra shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli raqamli texnologiyalarning ushbu fanga tatbiqu kognitiv jarayon bilan bir qatorda emotsional va qadriyatga asoslangan tarbiyaviy ta'sirni ham kuchaytiradi. Bu esa o'quvchilarda refleksiv fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim texnologiyalarining "Tarbiya" fanidagi asosiy didaktik imkoniyatlarini quyidagi yo'nalishlarda umumlashtirish imkonini beradi:

Birinchidan, ko'rgazmalilik va emotsional ta'sir kuchini oshirish. Multimedia resurslar (video, animatsiya, infografika) tarbiyaviy mazmuni hayotiy va ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarda qadriyatlarni chuqurroq anglashni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish. Raqamli platformalar o'quvchilarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o'zlashtirish tezligiga mos ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Uchinchidan, interfaol va hamkorlikka asoslangan o'qitish. Onlayn muhokamalar, loyiha asosidagi ta'lim va virtual guruh ishlari o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, refleksiya va o'z-o'zini baholashni rivojlantirish. Elektron portfel, onlayn testlar va raqamli monitoring vositalari o'quvchilarning o'z rivojlanish jarayonini tahlil qilishiga imkon yaratadi.

Beshinchidan, o'qituvchining kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash. Raqamli muhit pedagoglarga uzluksiz malaka oshirish, onlayn resurslardan foydalanish va innovatsion tajribalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Shu asosda bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchisining raqamli kasbiy kompetentligini quyidagi komponentlar asosida ifodalash mumkin:

- Texnologik komponent – raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmasi;
- Didaktik-raqamli komponent – texnologiyalarni pedagogik maqsadlarga mos qo'llash;
- Axborot xavfsizligi va mediasavodxonlik komponenti – raqamli muhitda xavfsiz ishlash va axborotni tanqidiy baholash;
- Kommunikativ-raqamli komponent – raqamli muhitda samarali pedagogik muloqot;
- Innovatsion-ijodiy komponent – yangi raqamli pedagogik yechimlarni yaratish va qo'llash.

Ushbu model zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida "Tarbiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga kompleks yondashuvni ifodalaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalari “Tarbiya” fanini boyitish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq bu jarayon avtomatik tarzda amalga oshmaydi. Asosiy masala texnologiyaning o'zida emas, balki uning pedagogik maqsadlarga yo'naltirilgan holda metodologik jihatdan to'g'ri qo'llanilishidadir. Hozirgi kunda ayrim pedagogik oliy ta'lim muassasalarida raqamli kompetentlikni shakllantirish jarayoni texnik va didaktik jihatlar o'rtasidagi muvozanatni to'liq ta'minlamagan holda olib borilmoqda. Ya'ni talabalarga raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari nisbatan yaxshi shakllantirilayotgan bo'lsa-da, ushbu vositalarni aynan tarbiyaviy maqsadlarda metodik jihatdan asoslangan holda qo'llash ya'ni didaktik-raqamli kompetensiya yetarlicha e'tibordan chetda qolmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, “Tarbiya” fani o'z tabiatiga ko'ra bevosita shaxslararo muloqot, emotsional ta'sir va individual pedagogik yondashuvga asoslanadi. Shu sababli raqamli texnologiyalarni haddan tashqari yoki noto'g'ri qo'llash tarbiyaviy jarayonning jonli muloqotga asoslangan mohiyatini susaytirishi mumkin. Demak, bu jarayonda didaktik muvozanat tamoyili muhim bo'lib, raqamli vositalar tarbiyaviy muloqotni almashtirmasdan, balki uni boyitishi va kuchaytirishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi farmoni. – Toshkent, 2020.
2. Muslimov N. A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007. – 349 b.
3. Begimqulov U. Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Hamidov J. A. O'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2015.
6. Turaqulov O. X. Ta'limning interaktiv usullari va raqamli vositalar. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.